
FARG'ONA SHAHARDA 4 TA TAJRIBA ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH, KICHIK BIZNESGA JALB QILISH BO'YICHA FARG'ONA SHAHAR HOKIMI NAZAROV VOSILJON SHUXRATOVICHNING MUROJAATI

Assalomu alaykum, Shahardoshlar!

Muxtaram Yurtboshimiz tomonidan yaratib berilgan 4 ta tajriba, ya'ni **Sayxunobod, Zarbdor, Uychi va G'ijduvon** tajribalari yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholi daromadini oshirish, tomorqadan samarali foydalanish, mahallalarda drayver loyihalarni ishlab chiqish va sanoatni rivojlantirishda dasutri amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Joriy yil mobaynida **“Sayxunobod tajribasi”** asosida 73 ta mahallalarda jami **683 ta** mikroloyihalar (*qiymati 40 mlrd 300 mln.so'm*) ishga tushirilishi natijasida 1476 ta ish o'rinlari yaratildi.

Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan kredit olish istagini bildirgan 485 ta xonadonlarga 4 923 mln.so'm, subsidiya olish istagini bildirganlar 135 ta xonadonlarga 467 mln.so'm mablag'lar ajratildi hamda homiylik asosida 69 ta xonadonlarga 85 mln.so'mlik ko'mak ko'rsatildi.

“Zarbdor tajribasi” bo'yicha drayver yo'nalishlarda umumiy qiymati **679,0 mlrd so'mni** tashkil qiluvchi **26 ta** yirik loyihalar shakllantirilib, bu loyihalarda **1 545 nafar** fuqarolar bandligini ta'minlash ko'zda tutildi.

Joriy kunga qadar mazkur loyihalardan umumiy qiymati **535,3 mlrd so'mni** tashkil qiluvchi **25 ta** loyihalar ishga tushirilgan bo'lib, **1 410 ta** ish o'rinlari yaratildi.

“G'ijduvon tajribasi” bo'yicha **27 ta** loyihalar ishga tushirilishi natijasida **632 ta** ishchi o'rni yaratildi.

Jumladan: Qo'ziqorin yetishtirish yo'nalishida – shaharning **“Beshbola”** mahallasida tadbirkor **Xolmatov Abdullajon Rahmonaliyevich** tomonidan **qo'ziqorin yetishtirish** yo'lga qo'yilgan. Xonadonda 1 mavsumda 6 tonna qo'ziqorin yetishtirilmoqda. 1 000 dona qoplarga ekilgan qo'ziqorin urug'lari o'rtacha 25 kunda 2 kg hosil bermoqda va bir mavso'mda 3 marta qo'ziqorin hosili olish imkoniyati mavjudligini inobatga olib, xonadonning sof daromadi 1 mavso'mda o'rtacha 105,0 mln so'mni tashkil qilmoqda.

Eng muhimi ishlovchilar bandligi o'z xonadonida ta'minlanadi. Bu orqali **200** nafardan ortiq ishsiz fuqarolar bandligini yil davomida ta'minlash reja qilib olingan bo'lib, bugungi kunga kelib jami 73 ta MFYlarda 80 dan ortiq xonadonlarda **8000 qopga** yaqin qo'ziqorin yetishtirish ishlari boshlab yuborilgan bo'lsa, 20 ta MFY xonadonlarida tayyor bo'lgan mahsulotlarni sotish orqali har bir band bo'lgan ishsiz fuqarolar bir oyda **2,0-2,5 mln.so'm** daromad manbaiga ega bo'lmoqda.

“Uychi tajribasi” bo'yicha shahardagi **19 ta** tijorat banklari tomonidan mijozlari bilan o'tkazilgan uchrashuvlar va ko'rsatilgan amaliy yordamlar natijasida bugungi kunga qadar **5 448 ta** ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan davrda **521 ta** oilalarda istiqomat qiluvchi **1 439 nafar** aholi kambag'allikdan chiqarildi. Shundan, **14 ta** oilaga imtiyozli kredit ajratildi, **91 tasiga** subsidiya ajratildi, **39 tasi** kasb-xunar va tadbirkorlikka o'qitildi, **195 tasi** doimiy va mavsumiy ish o'rinlariga ishga joylashtirildi, **237 ta** oilaning “Sayxunobod” va “Uychi” tajribasi asosida bandligi ta'minlandi.

Joriy yil o'tgan davrida kambag'allik darajasi **0,4 foizga** qisqartirilib **4,0 foizni** tashkil etmoqda.

Bu borada amaliy ishlar davom ettirilmoqda.

1 / 2

Joriy yil yakuniga **609 ta** xonadonlarda istiqomat qiluvchi **1,6 ming** nafar aholi kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi **3,8 foizga** tushirilishi ta'minlanadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2024-09-23 20:13:55